

# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/5 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Кайпова Малика Дауытбай қизи*  
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА  
ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ .....9-13
- Фарманова Гульнара Комилевна*  
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ  
САМАРКАНДСКОГО СОГДА ..... 14-19
- Aminov Xurmatbek Вахрам о'g'li*  
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR ..... 20-25
- Мустафоев Жонибек Аралбоевич*  
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ  
ОҚИБАТЛАРИ (НАВОИЙ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) ..... 26-31
- Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li*  
O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOY DAVLATNI  
SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI .....32-36
- Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*  
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ....37-45
- Назаров Комил Шамсуддинович*  
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ .....46-51
- Матажонов Раҳимжон Акратович*  
O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI  
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI .....52-58
- ### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
- Остоноқулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*  
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ  
ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ ..... 59-69
- Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich*  
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF  
UZBEKISTAN ..... 70-75
- Хамраев Джамшид Панжиевич*  
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ  
ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ ..... 76-81
- Кулибоев Азамат Шоназарович*  
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ  
УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 82-91
- Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*  
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH  
USULLARI VA AFZALLIKLARI ..... 92-97

<i>Саатмуротов Шохрух</i> МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ .....	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ .....	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ .....	114-121
<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i> DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TAHLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI .....	122-129
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> «COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ .....	130-137

### **09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i> JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI .....	138-145
<i>Rahmatova Xolidaxon Xolikovna</i> ХОҲА АНРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА НАМЎНАТЛИККА ДОИР Г'ОЙАЛАРИ – ВАРҚАРОР ТАРАҚҚИЙОТ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	146-151
<i>Орзиев Иқболжон</i> АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ .....	152-157
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA VAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<i>Israil Mukaddas Irgashevna</i> BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDА O'RGANISH USULLARI .....	166-172
<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR .....	173-178
<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ .....	179-184
<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i> O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI .....	185-189
<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI .....	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI .....	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI .....	214-219

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ .....	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI .....	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI .....	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ .....	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ .....	254-258

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Atamatov Abduxalil Salomovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA .....	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI .....	272-277

---

<i>Kuchkarova Arofathon</i> THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS .....	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYYATINI O'QITISH TARIXI .....	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i> KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH .....	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i> XORAZM XALQ O'YINLARI .....	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> OLIJ TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI .....	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i> PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIJ RAHBAR KOMPETENTLIGI .....	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i> OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK – USLUBIJ TA'MINOTI .....	316-322

*08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари*

**Ibragimova Zarema Zokirovna,**

Farg'ona politexnika instituti,  
"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası, assistenti,  
e-mail: [z.z.ibragimova@ferpi.uz](mailto:z.z.ibragimova@ferpi.uz)

**DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TAHLILINI  
TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI**

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotda bugungi kunda dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarining boshqaruv tahlilini tashkil etish va ularni ichki iqtisodiyotga tatbiq etish tajribasini o'rganishga e'tibor qaratildi, xususan dunyoning eng iqtisodiy rivojlangan mamlakatlaridan biri Yaponiya tajribasi JIT ("just-in-time", ya'ni "o'z vaqtida") tizimi tahlil etildi, ushbu tizimning afzalliklari va kamchiliklari haqida fikr yuritildi, muallif tomonidan tadqiqot natijalariga asoslangan holda yurtimiz iqtisodiy tarmoqlariga ushbu tizimni joriy etish, yaxshi samara berishi haqida xulosalar qilindi.

**Kalit so'zlar:** bozor munosabatlari, zamonaviy buxgalteriya hisobi, xalqaro standartlar, boshqaruv hisobi, menejment ehtiyojlari, boshqaruv jarayoni, JIT tizimi, mahsulotlar bozori, tannarx tarkibi.

---

**Ibragimova Zarema Zokirovna,**

Fergana Polytechnic Institute,  
Assistant, Department of Accounting and Auditing,

**THE EXPERIENCE OF ECONOMICALLY DEVELOPED COUNTRIES OF THE WORLD IN THE  
ORGANIZATION OF MANAGEMENT ANALYSIS AND THEIR IMPLEMENTATION IN THE  
DOMESTIC ECONOMY**

**Abstract.** In this study, the main attention is paid to the study of the experience of organizing managerial analysis of economically developed countries of the world today and their application in the domestic economy, in particular, the Japanese experience of one of the most economically developed countries of the world JIT (just-in-time, i.e. "on time") is analyzed, the opinion is expressed about the advantages and disadvantages this system. Based on the results of the study, the author concluded that the introduction of this system in the sectors of the economy of our country will have a good effect.

**Keywords:** market relations, modern accounting, international standards, management accounting, management needs, management process, JIT system, product market, cost structure.

---

**Ибрагимова Зарема Зокировна,**

Ферганский политехнический институт,  
ассистент, кафедры "Бухгалтерский учет и аудит",

**ОПЫТ ЭКОНОМИЧЕСКИ РАЗВИТЫХ СТРАН МИРА ПО ОРГАНИЗАЦИИ  
УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ОТЕЧЕСТВЕННУЮ ЭКОНОМИКУ**

**Аннотация.** В настоящем исследовании основное внимание уделено изучению опыта организации управленческого анализа экономически развитых стран мира на сегодняшний день и их применению во внутренней экономике, в частности, проанализирован японский опыт работы одной из наиболее экономически развитых стран мира JIT (just-in-time, т. е. “вовремя”), высказано мнение о достоинствах и недостатках этой системы. На основе результатов исследования автором были сделаны выводы о том, что внедрение данной системы в отраслях экономики нашей страны даст хороший эффект.

**Ключевые слова:** рыночные отношения, современный бухгалтерский учет, международные стандарты, управленческий учет, потребности управления, процесс управления, система JIT, рынок продукции, структура затрат.

**DOI:** <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N17>

**Kirish.** Mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi iqtisodiyotni samarali boshqarishni, axborot texnologiyalari yutuqlarini, yangi va ilg'or tajribalar hamda texnologik yechimlarni faol hamda izchil amalga oshirishni talab qiladi. Bunday sharoitda buxgalteriya hisobining roli beqiyos darajada oshib bormoqda, chunki nafaqat olingan daromad bilan bog'liq xarajatlarni o'lchash, balki har bir investitsiya qilingan so'mdan tashkilot va korxonalarining ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatida samarali foydalanishni tahlil etish hamda nazorat etishni talab etiladi.

Zamonaviy buxgalteriya hisobi tashkilotni boshqarish tizimida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. U xalqaro standartlar talablariga javob berishi, axborotdan ichki va tashqi foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaxiralarini aniqlashi va “biznes tili” bo'lishi kerak. Shubhasiz, yuqoridagi talablarga javob berish uchun ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va aks ettirishning turli usullaridan foydalanish kerak. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bu muammo butun buxgalteriya tizimini ikkita quyi tizimga bo'lish yo'li bilan hal qilindi: moliyaviy va boshqaruv.

Moliyaviy buxgalteriya nafaqat ichki boshqaruv uchun ishlatiladigan, balki kontragentlarga, ya'ni uchinchi tomon foydalanuvchilariga ham xabar qilingan ma'lumotlarni qamrab oladi. Ushbu ma'lumotlar fiskal davlat idoralari va kompaniyalar aksiyadorlari, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar egalari, potensial investorlar va tashkilotning boshqa sherik guruhlari ehtiyojlarini qondirishi kerak. Uni boshqarish normalari va qoidalari xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan milliy standartlar bilan tartibga solinadi.

Boshqaruv hisobi tashkilotning ichki boshqaruv muammolarini hal qilishga mo'ljallangan va uning “nou-xau”dir. Moliyaviy buxgalteriya hisobidan farqli o'laroq, boshqaruv hisobi subyektiv va maxfiydir, ammo u boshqaruv qarorlarini qabul qilishni ta'minlashning asosiy yukini ko'taradi va u bilan yuqori darajadagi mutaxassislar shug'ullanadi. Aslida, boshqaruv hisobi iqtisodiy bilimlarning yangi murakkab sohasidir. Bu uning katta afzalligi, chunki fanlarning birlashmasida, turli xil ilmiy usullardan foydalanganda, yangi bilimlar va texnologiyalar uchun muhim yutuqlar yuz beradi.

O'zbekiston korxonalarida ko'plab bosh buxgalterlar an'anaviy yagona buxgalteriya hisobi bilan shug'ullanadilar. Ko'pgina korxonalarda boshqaruv hisobi yuritilmaydi yoki juda kam rivojlangan. Uning ko'plab elementlari buxgalteriya hisobi, operatsion va statistik hisob, iqtisodiy tahlil va boshqalar haqidagi an'anaviy tushunchamizga kiritilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar mutaxassislarining fikriga ko'ra, firma va kompaniyalar buxgalteriya hisobi sohasidagi ish vaqti va resurslarining 90 foizini boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish uchun sarflaydilar, qolgan qismi esa an'anaviy moliyaviy hisobga sarflanadi. Mahalliy korxonalarda bu nisbat, afsuski, aksincha ko'rinadi. Ushbu holat, asosan, yagona

uslubiy bazaning yo'qligi, ichki iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida boshqaruv hisobini tashkil etish va uni tahlili bo'yicha uslubiy tavsiyalar, shuningdek, uning ichki buxgalteriya amaliyotida shakllanishi hamda rivojlanishi davri bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda raqobat va yashash uchun kurash sharoitida ishlaydigan mahalliy korxonalar samarali boshqaruv hisobi va uning tahlil tizimini tashkil etish zarurligini boshdan kechirmoqda, shu munosabat bilan uni mahalliy buxgalteriya amaliyotida joriy etish muammosi muhim ahamiyatga ega.

Butun dunyoda boshqaruv hisobi biznesning biznes tili sifatida tushuniladi, shuning uchun tanlagan mavzusi katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, dinamik o'zgaruvchan sharoitlarda boshqaruv hisobi va uning tahlilini tashkil etish, zamonaviy talablarga javob berishi, boshqaruv hisobini imkon qadar samarali, tezkor va ishonchli bo'lishini ta'minlashi zarur.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyasi, taktika va dasturlarini ishlab chiqishda, ulardan olingan ma'lumotlarga, turli sohalarga tegishli korxonalar, muassasalar, uyushmalar va boshqalar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishga asoslandi. O'z o'rnida, xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini asoslovchi ma'lumotlar manbasi esa, ushbu subyektning buxgalteriya hisobi va hisobotlaridagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Ko'p asrlar davomida korxonalarni boshqarish buxgalteriya ma'lumotlari bilan cheklangan. XIX asrning boshlarida korxonalar egalarining o'zlari hisob kitob yozuvlarni yuritishgan va o'z ishlarini boshqarishgan. Biroq, XIX asrning o'rtalarida iqtisodiy faoliyat hajmi keskin oshdi, korxonalarining tashkiliy tuzilishi murakkablashdi va buxgalteriya ma'lumotlari iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan menejerlarning manfaatlarini qondirishni to'xtatdi. Aynan shu omil boshqaruv hisobining paydo bo'lishi sababchisi hamda vaziyatdan chiqish yo'li edi, chunki boshqaruv hisobi an'anaviy buxgalteriya hisobini bekor qilmaydi, balki uni to'ldiradi [1; 6 b].

Shu o'rinda yurtimiz olimlaridan T.Toshmamatovning mulohazalari yuqoridagi fikrini yana bir bor isbotlaydi: "Korxonada axborot berish tizimi ish faoliyatini shunday tashkil qilishi lozimki, korxonani boshqarish uchun zarur bo'lgan, bozordagi narx, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi va mahsulotni sotishdan olinadigan daromad to'g'risidagi ma'lumotlar boshqaruv apparati xodimlarining "qo'l ostida" doimo mavjud va istalgan paytda axborot olish imkoni yaratilgan bo'lishi lozim. Bunday vazifalar boshqaruv tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan -buxgalteriya hisobi yordamida bajariladi. Shuning uchun bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda buxgalteriya hisobini "Biznes tili" deb bekorga aytishmagan" [2; 53 b].

Bu borada xorijiy olimlarning fikr va mulohazalarini ham ko'p jihatdan uyg'un masalan rus olimi V. T. Chayaning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin "zamonaviy sharoitda korxonaning boshqaruv tizimlari doimiy tarzda samarali moliyaviy-iqtisodiy faoliyat uchun tegishli sifatli qo'shimcha ma'lumotlarni talab qiladi, buni an'anaviy buxgalteriya hisobi o'z metodologiyasi tufayli ta'minlay olmaydi. Shu munosabat bilan boshqaruv hisobini joriy etish orqali korxonaning iqtisodiy faoliyatini hisobga olish chegaralarini kengaytirish zarurati tug'ildi. Korxonani tezkor boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar buxgalteriya amaliyotining yangi va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblangan hamda an'anaviy buxgalteriya hisobining evolyutsion rivojlanishining mantiqiy natijasi bo'lgan boshqaruv hisobi tizimida yechim sifatida shakllandi" [3; 9 b].

Yuqoridagi fikrlar yanada rus olimi O.D. Kaverinaning quyidagi mulohazalarida ko‘rinadi: “Aytishimiz mumkinki, boshqaruv hisobi mijoz-menejer uchun ma’lumot yetkazib beruvchidir. Muvaffaqiyatga erishish uchun yetkazib beruvchi o‘z mijozining ehtiyojlarini yaxshi bilishi kerak. Shuning uchun boshqaruv hisobi mutaxassisi menejmentning turli darajadagi menejrlari qanday ishlashini tushunishi kerak. Boshqaruv qarorini qabul qilish jarayonini tushunish, uning umumiy algoritmini bilish, maqsadli ma’lumotni qachon va qanday tayyorlashni bilish kerak. Umumiy boshqaruv qoidalari bilan bir qatorda maqsadli modellar mavjud, masalan, xolding kompaniyasida javobgarlik markazlarini boshqarish, xarajatlarni boshqarish va boshqalar. Ular uchun joriy davrda korxonada uchun ustuvor bo‘lgan boshqaruv vazifalari to‘plamining yechimlarini axborot bilan ta‘minlashga qaratilgan boshqaruv hisobini tashkil yetish modellari shakllantiradi [4; 16 b].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yozishda quyidagi metod va usullar qo‘llanildi: saralash, taqqoslash, induksiya va deduksiya hamda boshqa iqtisodiy- mantiqiy usullar qo‘llanildi va muammoga tizimli yondashildi.

**Natija va muhokamalar.** Zamonaviy iqtisodiy sharoitda har bir xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyati uning faoliyati natijalaridan manfaatdor bo‘lgan bozor munosabatlari ishtirokchilari (tashkilotlar va shaxslar) ning keng doirasi e‘tiboridir. Mulkdorlar kapitalning rentabelligini oshirish, firma pozitsiyasining barqarorligini ta‘minlash maqsadida moliyaviy hisobotlarni tahlil qiladilar [5]. Shu o‘rinda alohida e‘tirof etish zarurki Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruv hisobi obyektiv zaruratdir. Chunki har bir tijorat tashkiloti rivojlanish yo‘nalishlarini, mahsulot turlarini, ishlab chiqarish hajmini, sotishni, xodimlarni, ijtimoiy va investitsiya siyosatini va boshqalarni mustaqil ravishda tanlaydi, barcha parametrlarda ma’lumot to‘plash, kerakli buxgalteriya ma’lumotlarini olish uchun obyektiv ehtiyoj mavjud.

Zamonaviy sharoitda boshqaruv hisobi to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy shartlaridan biridir. Bu boshqaruv hisobining eng muhim maqsadi.

Buxgalteriya hisobi tizimini tartibga solish, buxgalteriya hisobi va hisobotning xalqaro standartlarini joriy yetish, iqtisodiy boshqaruv usullarini joriy etish — bularning barchasi an‘anaviy moliyaviy buxgalteriya hisobi bilan bir qatorda har bir korxonada boshqaruv hisobini keng joriy yetishni ta‘minlash uchun obyektiv ehtiyojni taqozo etadi.

Boshqaruv hisobi deganda korxonada ichidagi menejment ehtiyojlari uchun buxgalteriya ma’lumotlarini to‘plash, qayta ishlash va taqdim etish tizimi tushuniladi, shuning uchun, albatta, ushbu sharoitda boshqaruv hisobining muhim maqsadi tegishli axborot tizimini yaratish va saqlashdir. Shu bilan birga, bu boshqaruv hisobi faoliyatining eng muhim shartidir.

Yana bir shart-bu boshqaruv hisobi tizimining maqbul ishlashini ta‘minlaydigan zarur ko‘rsatkichlar tizimini va ichki hisobot shakllarini ishlab chiqish.

Korxonada boshqaruv hisobini joriy etish boshqaruv jarayonini takomillashtirishning bir qator muhim vazifalarini hal qilishni ta‘minlaydi, ulardan biri uni optimallashtirishdir. Boshqaruv hisobini joriy etish, uning aloqalari boshqaruv jarayonini optimallashtirish muammolarini hal qilish uchun real imkoniyatlar yaratadi. Bunga quyidagilar kiradi: hal qilinishi kerak bo‘lgan maqsadlarni aniqlash, boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish, alohida xodimlarning javobgarlik darajasini belgilash, olingan natijalarni hisobga olgan holda qarorlarning bajarilishini joriy va keyingi nazorat qilish, og‘ishlarni tahlil qilish, joriy va keyingi nazoratni takomillashtirish. Boshqaruv hisobini amalga oshirishda ushbu vazifalarni hal qilish

tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish uchun eng maqbul tizimni ta'minlaydi.

Zamonaviy sharoitda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning faoliyati ishlab chiqarish tannarxini maksimal darajada pasaytirgan holda yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilishi kerak [6]. Shuning uchun iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigan mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarishni boshqarishning ilg'or shakllari va usullaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan bizni JIT ("just-in-time", ya'ni "o'z vaqtida") tizimidan foydalangan holda ishlab chiqarishni boshqarish usuli ayniqsa qiziqtiradi.

JIT tizimi Yaponiyada XX asrning 70-yillari o'rtalarida Toyota kompaniyasida paydo bo'lgan va hozirda ko'plab sanoatlashgan mamlakatlarda katta muvaffaqiyat bilan foydalanilmoqda.

JIT tizimining mohiyati katta partiyalarda mahsulot ishlab chiqarishdan voz kechishdir. Buning o'rniga uzluksiz oqimda ishlab chiqarish yaratilmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish sexlari va uchastkalarini yetkazib berish shunday kichik partiyalarda amalga oshiriladiki, u mohiyatan har bir detal aniq qaysi tayyor mahsulot tarkibidan joy olishi va mijozning istagi aniq rejalashtiriladi. Ushbu tizim inventarizatsiya oldida ko'plab muammolarni hal qilishni taqozo etadi. Katta texnik xarajatlarni talab qiladigan yirik zaxiralar, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, korxonaning manevrligi va raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir qiladi. Amaliy nuqtai nazardan, JIT tizimining asosiy maqsadi keraksiz xarajatlarni bartaraf yetish va korxonaning ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishdir.

JIT tizimi mahsulotlarni bozorga tashlashning an'anaviy usuliga qaraganda ko'proq talabga asoslangan. Ushbu tizim bilan prinsip qo'llaniladi: mahsulotni faqat kerak bo'lganda hamda faqat xaridorga kerak bo'lgan miqdorda ishlab chiqarish. Talab butun ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlarga hamroh bo'ladi. Har bir buyurtma uchun alohida operatsiya algoritmi ishlab chiqiladi va faqat shundan keyin jarayon boshlanadi zarur bo'lgan detallar ishlan chiqarish jarayoniga jalb etiladi. Ishlab chiqarish jarayoni keyingi ish joyidan ishlab chiqarishni boshlash zarurligi to'g'risida signal olinmaguncha boshlanmaydi. Ehtiyot qismlar, yig'ilishlar va materiallar faqat ishlab chiqarish jarayonida foydalanish vaqtida yetkazib beriladi.

JIT tizimi qayta ishlangan partiyalar hajmini kamaytirishni, tugallanmagan ishlarni amalda yo'q qilishni, inventarizatsiya hajmini minimallashtirishni va ishlab chiqarish buyurtmalarini oylar va haftalar bo'yicha emas, balki kunlar va hatto soatlar bo'yicha bajarishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishni hisobga olish tizimi ham soddalashtirilgan, chunki bitta kombinatsiyalangan hisobda materiallar va ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu tizimdan foydalanganda kompaniyaning bilvosita toifadagi xarajatlarining bir qismi to'g'ridan-to'g'ri toifaga kiradi. Masalan, JIT tizimidan foydalangan holda ishlab chiqarishni tashkil qilishda mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan ishlab chiqarish liniyasi ishchilari an'anaviy sharoitlarda boshqa ishchilar tomonidan amalga oshiriladigan va bilvosita xarajatlar toifasiga kiradigan texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va ishga tushirishni amalga oshirishlari shart. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarish birligi tannarxini hisoblashning aniqligini oshiradi.

Xarajatlarni boshqarish ishlab chiqarish buxgalteriyasidan farq qiladi, chunki bu holda xarajatlar va moliyaviy hisobotlarga bevosita ta'sir qiladimi yoki yo'qligidan qat'i nazar, xarajatlar darajasini tartibga solish tushuniladi. JIT tamoyillarini qo'llash ishlab chiqarish

xarajatlarini hisobga olish jarayonini soddalashtiradi va menejerlarga xarajatlarni tartibga solish va nazorat qilishda yordam beradi. Ushbu soddalashtirish ishlab chiqarish sifatini yaxshilashga, xizmatni yaxshilashga va xarajatlarni yaxshiroq baholashga olib keladi.

JIT tizimining potensial afzalliklari juda ko'p.

Birinchiidan, undan foydalanish zaxiralar darajasining pasayishiga olib keladi, bu esa zaxiralarga kapital qo'yilmalarning kamligini anglatadi. Ushbu tizim zudlik bilan foydalanish uchun minimal miqdordagi materiallarni talab qilganligi sababli, inventarizatsiyaning umumiy darajasi sezilarli darajada kamayadi.

Ikkinchiidan, JIT tizimidan foydalanish sharoitida buyurtmani bajarish ishonchligi sezilarli darajada oshadi, chunki materiallarni sotib olish va saqlash uchun ancha kam vaqt ajratiladi. Buyurtmani bajarish siklining qisqarishi, shuningdek, zaxiradagi zaxiralarga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi, bu mumkin bo'lgan yetishmovchilikni oldini olish uchun qo'shimcha inventarizatsiya buxgalteriya birliklari hisoblanadi. Rejalashtirilgan ishlab chiqarish istiqbollari doirasida ishlab chiqarish jadvali ham qisqartirilmoqda. Bu sizga bozor sharoitidagi o'zgarishlarga javob berish uchun zarur bo'lgan vaqtni olish imkonini beradi. Oddiy ish holatiga tezlashtirilgan o'tish tufayli mahsulotlarni kichik partiyalarda ishlab chiqarish ham katta moslashuvchanlikka erishishga yordam beradi.

Uchinchiidan, ushbu tizimdan foydalanganda ishlab chiqarish sifati yaxshilanadi. Buyurtma qilingan mahsulotlar miqdori oz bo'lsa, sifat muammolarining manbai osongina aniqlanadi va darhol tuzatishlar kiritiladi. Bunday sharoitda ko'plab firmalarning xodimlari sifatning ahamiyatini ko'proq tushunishadi, bu esa o'z navbatida ish joyida ishlab chiqarish sifatining yaxshilanishiga olib keladi.

JIT tizimining boshqa afzalliklari quyidagilardan iborat:

- materiallar va tayyor mahsulotlar zaxiralari uchun omborlarni saqlash uchun kapital xarajatlarni kamaytirish;
- zaxiralarning jismoniy va ma'naviy eskirish xavfini kamaytirish;
- nuqsonli mahsulotlardan yo'qotishlarni kamaytirish va ularni tuzatish hamda o'zgartirish xarajatlarini kamaytirish;
- hujjatlar hajmini kamaytirish;
- asosiy ishlab chiqarish materiallarining sifatini yaxshilash orqali ularning narxini pasaytirish.

Bundan tashqari, JIT tizimi ishlab chiqarishni hisobga olish xususiyatiga ta'sir qiladi. Uni qo'llash sharoitida bilvosita xarajatlarning bir qismi to'g'ridan-to'g'ri toifaga kiradi. Ushbu transformatsiya xarajatlarni mahsulot turlari o'rtasida taqsimlashga hamda umumiy xarajatni buyurtmalar boyicha taqsimlashga va shu bilan xarajatlarni hisoblashning aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu tizim yordamida ishlab chiqarish hisobi va tijorat faoliyatini yanada takomillashtirishga hissa qo'shadigan mahsulot turi, narxi, tannarxi, tarkibi va sotish usullari to'g'risida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda menejerlarning ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladigan xarajatlarni boshqarish tizimi yaratiladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalarini xulosa qilar ekanmiz, buxgalteriya hisobi iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun ma'lumot beruvchi, ishlab chiqarish, aylanish, taqsimlash va iste'molning real jarayonlarini aks ettiradi, korxonaning moliyaviy holatini tavsiflaydi, shu boisdan bugungi kunda "buxgalteriya hisobi -biznes tili" termini butun dunyoda tobora baralla yangramoqda.

Respublikamizda dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarining boshqaruv tahlilini tashkil etish va ularni ichki iqtisodiyotga tatbiq etish tajribasi qo'llashdan avval, buxgalteriya hisobi boshqaruv tahlilini tashkil etishning zamini ekanligini alohida e'tirof etish zarur. Buxgalterlarning funksiyalari nafaqat buxgalteriya hisobi, balki ishlab chiqarish xarajatlari smetasi bo'yicha ishlarni boshqarish va muvofiqlashtirish, buxgalteriya ma'lumotlarini tayyorlash va uni talqin qilishni o'z ichiga oladigan shart-sharoitlar yaratilmoqda, balki qaror qabul qilishda, ma'lumotlarni saralashda va tahlil qilish beqiyos o'rin egallaydi, zero turli xil variantlarga asoslangan yechimlar bugungi kunning eng asosiy rivojlanishning yuragi sanaladi.

Buxgalteriya hisobini tashkil qilishda buxgalteriya siyosatini shakllantirishga katta e'tibor berilishi kerak, bu tashkilot tomonidan tanlangan buxgalteriya protseduralari va usullari, ular faoliyat shartlariga, natijalar va moliyaviy holatni to'liq taqdim yetish talablariga eng mos keladi deb hisoblaydi.

Biz ushbu tadqiqot doirasida dunyoning iqtisodiy rivojlangan mamlakatlaridan Yaponiyada asos solingan JIT tizimidan foydalanish, milliy iqtisodiyotimizga joriy etish haqida mulohaza yuritdik, eng muhimi korxonalar uchun o'z vaqtida kerakli va sifatli, zarur miqdorda mahsulot ishlab bilish, bugungi kunning talabidir. Holbuki, tashkilot va mijozlar, yetkazib beruvchilar ichidagi qiymat zanjiri yoki qiymat zanjiri faoliyati boshqaruv hisobi sohasi bo'lishi kerak. Raqobatchilarning yutuq sifatida: qiymat zanjirlarining timsoli sifatida yetkazib beruvchilar va mijozlarni bog'laydigan aloqa tizimini joriy yetish, yaxshi samara berishi shubhasizdir. Raqobat ustunliklari strategiyasidan foydalanish, umumiy boshqaruv sifatini belgilaydi va korxonalar menejrlari oldga muhim vazifalar qo'yadi, umumiy sifat menejmenti usullaridan foydalanish, zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanishga olib keladi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Темиркулов, А. А., & Ахмадохунова, Х. О. (2022). Необходимость Управленческого Учета В Строительных Организациях Республики Узбекистан. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(4), 1-8.
2. Buxgalteriya hisobi nazariyasi [Matn]: darslik. T.Toshmamatov. — Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019. — 376 bet.
3. Чая, В. Т. Управленческий учет: учебник и практикум для вузов / В. Т. Чая, Н. И. Чупахина. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 354 с.
4. Каверина, О. Д. Управленческий учет: учебник и практикум для вузов / О. Д. Каверина. — 4-е изд., перераб. и доп. — Москва : Издательство Юрайт, 2023. — 428 с.
5. Тожиматов, И. (2023). BOZOR ISLOHOTLARI SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH MASALALARI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(6), 104-108.
6. Abduxalimovna, A. Z., & Nabiyevich, I. I. (2021). Organization of Long-Term Asset Accounting on the Basis of International Standards. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 2(11), 86-92.
7. Исманов, И. Н. (2023). НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ АНАЛИЗА ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ. In *Устойчивое развитие: анализ тенденций российской и мировой экономики* (pp. 115-120).
8. Kudbiev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. Q. (2022). Moliyaviy Hisobotlardan Moliyaviy Menejmentda Foydalanish Masallari. *Scientific progress*, 3(4), 1030-1037.

9. Ismanov, I. N. (2023). The considerations for some aspects of cost accounting system methodology. In E3S Web of Conferences (Vol. 402, p. 08050). EDP Sciences.
10. Ibragimova, Z. Z. (2021). MHXS BO'YICHA BIRINCHI HISOBOT TAYYORLASH MUAMMOLARI. Scientific progress, 2(8), 596-602.
11. Tohirovich, Q. N., & Ibroximovna, N. I. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA EKSPORT VA IMPORTNI SOLIQQA TORTISH XUSUSIYATLARI. Архив научных исследований, 5(5).
12. Qudbiyev, N. T., Haydarov, U. S. O., & Kurbonova, S. A. (2022). Harajatlar hisobning zamonaviy usullari. Scientific progress, 3(1), 442-448.
13. Kurbonova, S. A. (2021). Mahsulot tannarxi hisobiga olishda boshqaruv hisobini takomillashtirish masalalari. Scientific progress, 2(8), 603-607.
14. Расулова, Ш. (2023). XARAJATLARI HISOBINI TASHKIL ETISH VA TASNIFLASHNING IQTISODIY ANAMIYATI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(2), 85-93.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/5 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).